



## **FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI**

---



---

2023 - yil 6 - sentabr

95-11-154-F/23

Buvayda tuman hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28 va 73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan**

**1.** Tumanda o‘tkazilishi rejalashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik bayrami tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish uchun panolari tayyorlash, saxna bezaklari, saxna uchun gilam, televideniya va boshqa kerakli jixozlar hamda sovg‘alar sotib olish uchun **60,0** (oltmis) million so‘m va bayram taklifnomalari uchun **6.0** (olti) million so‘m jami **66.0** (oltmis olti) million so‘m mablag‘ tuman mahalliy budgetining 2023 yil zahira mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

**2.** Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2023 yil 29 avgust kungi 06/300-sonli xatini inobatga olib tuman “2-Ustozlar milliy forumi”da ustoz va o‘quvvchilarni taqdirlash uchun sovg‘alar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **35.0** (o‘ttiz besh) million so‘m mablag‘ tuman mahalliy budgetining 2023 yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Buvayda tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga ajratilsin.

**3.** Tuman hokimligining Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarini o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish;

- tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (M.Isroilov) va tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G‘aniyev)ga ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda maqsadli yo‘naltirilishini ta’minalash, moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Mirzaxalilov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**Odiljonovich I. B.**